

**”Folklorning maktabgacha ta’lim bolalarining tarbiyasidagi o’rni”**

**Osiyo Xalqaro Universiteti**

**Pedagogika va psixologiya kafedrası o’qituvchisi**

**Madina O’ktamovna Shukurova**

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta’lim tashkilotida folklorning namunalaridan foydalanib mashg’ulotlarni tashkillashtirishga oid vazifalarni mustahkamlashga erishish

**Kalit so’zlar:** Maqol, matal, ertak, doston, hikoya, monolog, ijtimoiy vaziyat, emotsional holat, ermak o’yinlar, muloqot, nutq, empatiya, diolog

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining so‘z san‘atiga asoslangan janrlar tizimi doston, ertak, qissa, rivoyat, naql, afsona, mif, lof, latifa, marosim folklori, bolalar folklori, og‘zaki drama, maqol va hikmatli so‘zlar, afsun, avrash, olqish va qarg‘ishlardan iboratdir. Bu kabi badiiy meros ajdodlarimiz poetik tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Har bir janrga oid bo‘lgan folklor o‘ziga xos poetik tizimi, ijro usuli, hayotiy-maishiy vazifasi, musiqaga munosabati, voqelikni badiiy aks ettirish hamda boshqa jihatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanib turadi. Xalq ijodida mavjud bo‘lgan yuksak ma‘naviy barkamollik an‘analari bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishning milliy negizidir. Shuning uchun ham o‘zbek xalq og‘zaki ijodining boy va serqirra an‘analarini qayta tiklab, uni rivojlantirish, yoshlarning bugungi kundagi ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda yetarli darajada imkoniyatlar yaratishda folklor va etnografiya bo‘yicha mutaxassislarim tayyorlash amaliy ahamiyatga egadir. “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun ham mamlakatimiz ma‘naviy hayoti uchun zarur bo‘lgan shunday malakali, intellektual salohiyati yuqori, ma‘naviy olami teran mutaxassislarni tayyorlashni toqazo etadi. Folklor va etnografiya yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashning milliy negizi-xalqimizning ma‘naviy qadriyatlarini yanada takomillashtirish, yosh avlod ongiga mustaqillik mafkurasi g‘oyalarini, hamda milliy qadriyatlarni chuqur singdirishdan iborat. Sababi, bu kabi mutaxassislar ajdodlarimiz ijodiy salohiyatining eng yaxshi an‘analarini kelgusida ham davom ettirishni ta‘minlashga o‘z hissalarini qo‘shishlari zarur. Xalqimizning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-estetik va falsafiy qarashlarini o‘ziga xos tarzda badiiy talqin etuvchi xalq og‘zaki ijodi folklorshunoslikning eng nodir manbalaridan hisoblanadi. Folklor asarlari xalqimizning yuksak madaniyatni bunyod etgan ulug‘ ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-intilishlari, urf-odatlar va marosimlari, an‘analarini mukammal aks ettirganligi uchun ham qadrlidir. Xalq og‘zaki ijodi fanda folklor deb yuritiladi. Barchamizga ma‘lumki, o‘zbek folklorshunosligi fanining shakllanishi XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Folklorshunoslik -xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining nodir namunalarini to‘plash, ularni sistemaga solish, ommaviy va akademik nashrlarni amalga oshirish, hamda xalq og‘zaki ijodiyoti yuzasidan tadqiqotlarni olib borishni o‘z ichiga oladi. “Folklor” atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan. “Folklor” atamasi “xalq donoligi” degan ma‘noni anglatadi. Xalq tomonidan yaratilgan hamma san‘at namunalarini (me‘morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, og‘zaki adabiyot) folklor namunalarini hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir san‘at sohasida ish olib borayotgan mutaxassislar o‘zi tanlagan faoliyat turi, ijod mahsulini “folklor” deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf o‘zining xalq raqslarini, folklorshunos olim xalq dostonlarini, ertaklarini folklor asari deb ataydilar. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi dastlabki vaqtlarda “el adabiyoti”, “xalq adabiyoti”, “og‘zaki adabiyot”, “xalq og‘zaki ijodi” deb atalgan bo‘lib, bu atama ilk bor H. Zarifov (1934-35 yillar) tomonidan qo‘lanilgan “folklor”, “O‘zbek folklori” sifatida qo‘llanila boshladi. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi ko‘plab janrlarni o‘z ichiga olgan og‘zaki

so‘z san‘ati namunalari bo‘lib, oddiy xalqning hayoti, tarixi, orzu-intilishlari, dunyoqarashlarini badiiy tarzda o‘zida aks ettiradi, ijro etiladi va ijro jarayonida og‘izdan-og‘izga, avlodan-avlodlarga o‘tib keladi. Folklor - sinkritik xususiyatga ega bo‘lib, barcha san‘at turlariga xos elementlarni o‘zida mujassamlashtirgan, unda so‘z, kuy va ma‘lum turlarida raqs uyg‘unlikda ijro etiladi. Folklor o‘zida xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlari zamirida xalqning dunyoqarashlari, ibtidoiy mifologik tushinchalardan mukammal diniy e‘tiqodiga bo‘lgan tushunchalar yotadi. An‘anaviy xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur biladigan, mustaqillik davri o‘zbek folklorining taraqqiyot qonuniyatlarini teran anglaydigan xalqning ma‘naviy ehtiyojlari va qiziqish doirasini yaxshi tushunadigan, havaskorlik ijodiyotini takomillashtira oladigan, boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlarini to‘la o‘zlashtirgan malakali mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Folklor namunalarini to‘plash ishlari bilan G‘ozi Olim Yunusov birinchi shug‘ullangan. U o‘z tadqiqotlari davomida o‘zbek epos-shunosligi tarixida birinchi bo‘lib Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kabi xalq baxshilarini aniqlab, 1922-yilning yozida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Hamroqul baxshilardan “Alpomish” dostonidan parchalar yozilgan. Folklorshunos olim G‘.O.Yunusov Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida bo‘lib, bir qancha qo‘shiq, ertaklar, afsona, maqol, topishmoq hamda rivoyatlarni yozib olgan. Bundan tashqari o‘zbek marosim folkloriga oid kuzatishlar olib borish bilan bir qatorda, boy etnografik materiallarni ham to‘plagan. G‘.O.Yunusov o‘zbek folklori namunalarini to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma ham yaratilgan. Folklorshunos olimning “Alla to‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z”, “El adabiyotidan namunalar”, “Og‘iz adabiyotida sinfiy tuyg‘ular kabi maqolalari folklorshunoslik tarixida muhim o‘rin tutadi.

1925-1928-yillarda G‘ozi Olim Yunusov, Hodi Zarifovlar xalq baxshilarini, ertakchi va qo‘shiqchilarni aniqlash, ularning repertuaridagi asarlarni yozib olishni tashkil etilgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Berdi baxshi, Abdulla shoir kabi bir qancha baxshilardan xalq dostonlarini yozib olishgan. Bu ishga Mahmud Zarifiy, Bahrom Ibrohimov, Muqim Hamzabekov, Nazarqosim Mirzayev, Husayn Karim kabi havaskor folklor to‘plovchilar ham ishlagan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O‘YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.
2. O‘ktam’s, S. M. (2023). Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 104-108.
3. O‘ktam qizi Shukurova, M. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 357-360.
4. O‘ktam qizi Shukurova, M. (2023). The importance of genres of folklore in the education of preschool children. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 96-99.
5. Shukurova, M. (2023). METHODS AND METHODS OF INCREASING CHILDREN’S SPEECH IN A PRESCHOOL ORGANIZATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 477-480.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-2

6. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 277-284.
7. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(6), 47-51.
8. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
9. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).
10. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL, 7*.
11. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
12. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
13. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 6(1), 54-68.
14. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR*, 7(17), 461-466.
15. Ravshanovna, X. S. (2023). Globallashuv sharoitida o 'quvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shakllantirishda muloqot uslublarining ahamiyati. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 100-106.
16. Khalilova, S. (2022). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF GLOBALIZATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 6-11.
17. Sidiqova Yulduz Sobirovna. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ, MULOQOT O'QISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 52-62.
18. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.
19. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(11). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/ijmrd/article/view/444>.
20. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 386-388.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-2

21. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.
22. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(6), 1223-1226.
23. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. *Modern Science and Research*, 2(5), 1009-1014.
24. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O'RNI. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 675-678.
25. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG 'ISHGAN XULQINING KO 'RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO 'RINISHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 528-532.
26. Akbarovna, I. S. (2023). YOSHLARDA DESTRUKTIV G'OYALARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH OMILLARI.
27. Akbarovna, I. S. (2023). TALABA YOSHLARDA MAFKURA TUSHUNCHASI VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.
28. Akbarovna, I. S. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH.
29. Умурзоков, Д. (2023). МИЛЛИЙ ЎЗИНИ ЎЗИ АНГЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. *Interpretation and researches*, 1(6).
30. Умурзоков, Д. Х. (2023). МИЛЛИЙ МАНСУБЛИК БОРАСИДАГИ ИЛК ЎСПИРИНЛАРНИНГ ТАСАВВУРЛАРИДА ИЖТИМОЙ РОЛЛАРНИНГ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 4(ТМА Conference), 567-572.
31. Умурзаков, Д. Х. (2014). ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В СОЗНАНИИ РАННИХ ПОДРОСТКОВ. *Человеческий фактор: Социальный психолог*, (1), 110-116.
32. Умурзоков, Д. Х., & Расулова, Ю. Б. ИЛК ЎСПИРИНЛАРНИНГ ЁШГА ОИД ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УЛАРНИ МИЛЛАТГА МАНСУБЛИКНИ АНГЛАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. *PSYCHOLOGIYA* Учредители: Бухарский государственный университет, (S2), 130-132.
33. Kholmurodovich, U. D., & Nuralievna, R. Z. (2021, February). CAUSES AND MOTIVATIONS OF CONFLICTS. In *E-Conference Globe* (pp. 26-28).
34. Kholmurodovich, U. D., & Nuriddinovich, S. A. (2021, February). SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CAUSES OF MINOR CRIMES. In *E-Conference Globe* (pp. 23-25).
35. Умурзаков, Д. Х., & Жураева, Н. А. (2020). Женщины как объект управленческой деятельности. *European science*, (4 (53)), 45-47.
36. Jalolov, T. (2023). UNDERSTANDING THE ROLE OF ATTENTION AND CONSCIOUSNESS IN COGNITIVE PSYCHOLOGY. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 839-843.
37. Jalolov, T. S. (2023). MATH MODULES IN C++ PROGRAMMING LANGUAGE. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 834-838.